



# O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

*VOL. 2 ISS: 5 (2025)*

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



TASHKENT STATE  
UNIVERSITY OF ECONOMICS



№	MUNDARIJA	Page
1.	<b>SUG'URTA KOMPANIYALARI INVESTITSION FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISHDA MOLIYAVIY MEKANIZMLARNING ROLI: NAZARIYA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI</b> <i>Abdullayev Erkinjon A'zamovich</i>	4
2.	<b>GLOBALASHUV SHAROITIDA IQTISODIY INTEGRATSIYA VA RAQAMLASHTIRISHNING RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI</b> <i>Nomozova Qumri Isoevna</i>	8
3.	<b>МЕХАНИЗМЫ ФИНАНСОВОГО СТИМУЛИРОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА СТРАХОВОГО СЕКТОРА ПОСРЕДСТВОМ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ ПЕРЕСТРАХОВАНИЯ</b> <i>Мухамедов Фарход Турсунбаевич, Муминова Ансора Улугбек кизи</i>	11
4.	<b>POLYUTSIYA SUG'URTASI MOHIYATI VA O'ZBEKISTONDA JORIY QILISH MASALALARI</b> <i>Erkaboyev Yorbek Boirbekovich</i>	14
5.	<b>ISLOM MOLIYASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI, AMAL QILISHI BILAN BOG'LIQ O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI</b> <i>Qo'ldoshev Jahongir Qamariddinovich</i>	17
6.	<b>XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING ILMIY YONDASHUVLARI</b> <i>Ko'charov Xurshid Xurram o'g'li</i>	19
7.	<b>O'ZBEKISTON QISHLOQ XO'JALIGINING SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA SUG'URTA XIZMATLARINING ROLI</b> <i>Kalenov K.T.</i>	22

## “O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo‘jayevich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (“O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi” AJ bosh direktori, iqtisodiyot fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash markazi rahbari, dots.).
10. Quldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, prof.).
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A‘zamjonovich (“Kafil Sug‘urta” AK sug‘urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O‘zbekiston madaniyat va san‘at instituti professori, i.f.n. dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi rahbari, i.f.b.f.d.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU “Moliya bozori va sug‘urta” kafedrasida mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori).
20. Mutalova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU Magistratura bo‘yicha dekan o‘rinbosari, i.f.b.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori v.b., iqtisodiyot fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida professori v.b. i.f.d.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU “Marketing” kafedrasida dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo‘latovich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasida dotsenti, i.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, i.f.n.).



## ISLOM MOLIYASINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI, AMAL QILISHI BILAN BOG'LIQ O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Qo'ldoshev Jahongir Qamariddinovich

Toshkent Ijtimoiy Innovatsiya Universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada islom moliyasining nazariy-huquqiy asoslari, ribo, g'arar va maysir kabi islomda va o'z o'rnida islom moliyasida man etiladigan holatlar, shuningdek islom moliyaviy institutlari amal qilishining tamoyillari va moliyaviy instrumentlarining shakllanish mexanizmi tahlil qilingan. Islom moliyasi global moliyaviy tizimning barqaror va etik yo'nalishi sifatidagi afzalliklari ilmiy asosda yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** islom moliyasi, ribo, garar, maysir, shariat, moliyaviy instrumentlar, halol moliya.

**Abstract:** This article analyzes the theoretical and legal foundations of Islamic finance, the concepts of riba, gharar, and maysir — which are prohibited in Islam and, accordingly, in Islamic finance — as well as the principles of operation of Islamic financial institutions and the mechanism of forming financial instruments. The advantages of Islamic finance as a stable and ethical direction of the global financial system are scientifically substantiated.

**Keywords:** Islamic finance, riba, gharar, maysir, Sharia, financial instruments, halal finance.

**Абстрактный:** В данной статье проанализированы теоретико-правовые основы исламских финансов, такие запрещённые в исламе и, соответственно, в исламских финансах явления, как рибa, гарар и майсир, а также принципы деятельности исламских финансовых институтов и механизм формирования финансовых инструментов. На научной основе раскрыты преимущества исламских финансов как устойчивого и этического направления глобальной финансовой системы.

**Ключевые слова:** исламские финансы, рибa, гарар, майсир, шариат, финансовые инструменты, халяльные финансы.

### Kirish (Introduction/Введение).

Islom moliya tizimi – islom huquqi, boshqacha so'z bilan aytganda, shariat qonun-qoidalari asosida tashkil etish va faoliyat yuritish tamoyiliga asoslangan bank tizimidir, ya'ni bu turdagi banklarning barcha amaliyotlari, masalan, depozit omonati yoki moliyalashtirish bilan bog'liq amaliyotlari ham shariat ko'rsatmalariga muvofiq bo'ladi. Islom banklarining boshqa amaliyotlari: pul o'tkazmalari, kafolat xatlari, akkreditivlari, chet el valyutasini sotish kabilarga nisbatan ham bu qoidalar o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Jahon moliya bozorida so'nggi o'n yilliklarda islom moliyasi ulushi muntazam o'sib bormoqda. Bugungi kunda islom banklari aktivlari 3 trln. dollardan ortiqni tashkil etmoqda. Islom moliyasi an'anaviy moliyaviy tizimdan farqli o'laroq, shariat me'yorlariga asoslangan etik-prinsipial model bo'lib, u yuqori darajada risk taqsimoti, aktivlar bilan ta'minlangan operatsiyalar va sof foizli bitimlardan voz kechishga asoslanadi.

Ushbu maqolada islom moliyasi tushunchasi, islom moliyasi to'g'risidagi nazariy qarashlar, tamoyillari va moliyaviy amaliyotlarini shakllantiruvchi nazariy asoslar ilmiy jihatdan yoritiladi.

### Mavzuga oid adabiyotlar sharhi (Literature review, Анализ литературы).

"Introduction to Islamic Finance: Theory and Practice" - bu kitob islom moliyasi to'g'risidagi nazariyalarni o'zro tahlil qiladi, islom moliyasini tashkil etish prinsiplari va ularni amalga oshirishning asosiy tamoyillarini tushuntiradi va qimmatli qog'ozlarni joriy etish orqali kapitalni jalb qilish jarayonlarini tahlil qiladi. [1]

S.M.Hasan uz-Zaman: Islom iqtisodiyoti bu fiqhiy hukmlar va qonun-qoidalarining amalga tatbiq etilishi bo'lib, u insonlarning talablarini qondirish uchun iqtisodiy resurslardan noto'g'ri va isrofgarchilik bilan foydalanishning oldini oladi. Shuningdek, ularni Yaratgan Alloh, jamiyat oldidagi burchini bajarish uchun qodir qilib qo'yadi [2].

M.A.Mannan: Islom iqtisodiyoti bu insonlarning Islom qadriyatlarini bilan sifatlangan iqtisodiy muammolarini o'rganadigan ijtimoiy ilm hisoblanadi [3].

Xurshid Ahmad: Islom iqtisodiyoti bu iqtisodiy muammoni tushunish maqsadida tizimli harakat qilish va bu muammoga insonning islomiy jihatdan bo'lgan munosabatidir [4].

M.Najatulloh Siddiqi: Islom iqtisodiyoti bu islomiy fikr yurituvchilarning o'z vaqtida bo'ladigan iqtisodiy muammolarga bo'lgan munosabatidir. Bu borada musulmonlarga Qur'oni Karim va sunnat, shuningdek muammoning sababi va u bo'yicha to'plangan tajriba dastak vazifasini o'taydi [5].

### Tadqiqot maqsadi va usullari (Research objective and methods, Цель и методы исследования).

Mazkur tadqiqotda qo'yilgan maqsadlarga erishishda empirik tahlil, mantiqiy tahlil, ilmiy abstraksiyalash hamda ekspert baholash usullaridan foydalanildi.

### Tahlil va natijalar (Analysis and results, Анализ и результаты).

O'tgan asrning 50-60 yillarida Osiyo, Afrika va Yaqin Sharq musulmon o'lkalarining mustaqillikka erishishlari hamda 70-yillarda jahon bozorida bo'lib o'tgan neft inqirozlari hozirgi zamonaviy Islom moliyasi tizimining vujudga kelishiga turkib bo'ldi. Neft eksport qiluvchi Fors ko'rfazi davlatlarining moliyaviy ahvoli yaxshilana boshladi va endi iqtisodiyotda qo'llanilayotgan amallarni shariat talablari asosida yuritish masalasini hal etish o'sha davrning asosiy muammolaridan biri bo'lib, ushbu muammoni hal etish zarur edi. Shu maqsadda islom olamining davlat arboblari, siyosatshunoslari va diniy ulamolar bir necha marta yig'ilishib, musulmonlar uchun zarur Islom moliyasi va Islom bank tizimini yaratish haqida anjumanlar o'tkazishdi.

Natijada, 1975 yil musulmon davlatlarining hamkorligida Saudiya Arabistonida joylashgan Islom Taraqqiyot Banki (Islamic Development Bank) tashkil etildi. Mazkur yilning o'zida shu mintaqaning bir qancha tadbirkorlari ishtirokida dunyoning birinchi xususiy Islom banki – Dubai Islom Banki (Dubai Islamic Bank) tashkil etildi. Ikki yildan so'ng yana uchta Islom banki: Misrning Faysal Islom Banki (Faisal Islamic Bank of Egypt), Sudanning Faysal Islom Banki (Faisal Islamic Bank of Sudan) va Quvaytning Kuwait Finance House nomli Islom banklari faoliyat boshladi.

Keyingi o'n yilliklarda Islom moliyasi tizimi yanada taraqqiy etib boshladi. 80-yillarda Eron va Sudan o'z moliya tizimlarini tubdan isloh

qilishdi, natijada, mamlakat bank tizimida umuman foiz degan tushuncha qolmadi. Hozirgi kunda Eron dunyoning eng katta Islom moliyasi bozoriga ega: 2016 yil yakuniga ko'ra, u 560 mlrd. AQSh dollarini tashkil qildi.

Malayziyada ilk Islom moliyaviy tashkiloti 1963 yilda tashkil etilgan bo'lib, bu tashkilot Musulmon Hojilarning Jamg'arma Tashkiloti sifatida ta'sis etildi (hozirgi Tabung Hajj tashkiloti). Hozirda ushbu tashkilot hajja bormoqchi bo'lgan musulmonlarning pul mablag'larini jalb qilish, boshqarish va ularni investisiya qilish bilan shug'ullanadi. Bu tashkilot juda muvaffaqiyatli faoliyat olib borib, 1983 yilda Malayziya Islom Banking tashkil etilishida katta rol o'ynadi.

Hozirgi kunda Malayziya bank tizimida an'anaviy banklar ham, Islom banklari ham birday faoliyat yuritadi. Ilgari Bahrayn Islom moliyasi tizimining "poytaxti" sanalgan bo'lsa, hozirgi kunda Malayziya bu etakchilikni o'z qo'liga olgan. Islom moliyasi va Islom banki faoliyatini muvofiqlashtiruvchi qonunchilik bazasining mukammalligi, Islom bank sektorining hajmi, Sukuk nomli Islom obligatsiyalar (qarz majburiyatlarini ifodalovchi qimmatli qog'ozlar) bozorining salmog'i, Islom moliya bo'yicha ta'lim va malaka oshirish dasturlari va umuman shakllangan Islom moliya infrastrukturalari jihatidan Malayziya eng ilg'or davlat sanaladi.

Islom moliyasi — shariat me'yorlariga muvofiq amalga oshiriladigan moliyaviy operatsiyalar tizimi bo'lib, uning asosiy maqsadi adolat, barqarorlik va iqtisodiy munosabatlarda ikki tomonning manfaatini teng ta'minlashdan iborat. Islom moliyasining asosiy huquqiy manbalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1. Qur'on — moliyaviy muomalalarga oid umumiy qoidalar qur'on oyoqlari.
2. Hadislar — rasululloh (s.a.v.)ning iqtisodiy munosabatlarga doir ko'rsatmalari.
3. Ijmo — ulamolarning bir masalada umumiy fikrga kelishlari.
4. Qiyos — o'xshash holatlardan qiyosiy xulosa chiqarish.
5. Islom huquqining fiqh qoidalari — iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi umumiy mantiqiy qoidalar.

Islom moliyasi an'anaviy moliyaviy operatsiyalardan asosan uchta muhim omil bilan farqlanadi:

ribo — mablag'larni foiz evaziga qarzga berish orqali qo'shimcha daromad olish amaliyoti. Islomda foiz ikki asosiy sababga ko'ra taqiqlangan bo'lib, bular: islomdagi adolat prinsipiga zid deya hisoblanishi va haqiqiy iqtisodiy faoliyatsiz daromad olishning nojoiz deb e'tirof etilishi.

Shu bois islom banki qarz berganda foiz olmaydi, unga foyda keltiruvchi bitimlar aktivlarga bog'langan holda amalga oshiriladi (murobaxa, ijara va h.k.).

g'araming (noaniqlik) man etilishi. G'arar — shartnoma mazmunida yuqori darajadagi noaniqlikning mavjudligidir. Misol uchun, mavjud bo'lmagan aktivni sotish, nima ekanligi aniq bo'lmagan tovarni sotish. Islom moliyasida barcha bitimlar aniq, ko'rinarli, aktivlar bilan ta'minlangan bo'lishi shart.

maysir — tasodifdan kelib chiqadigan, mehnatsiz daromad olish. Bular sifatida qimor, lotoreya, xedj-fondlardagi ayrim spekulativ operatsiyalar va shu kabilarni keltirish mumkin.

Islom moliyasining asosiy tamoyillari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: risk va foydani teng taqsimlash. Tomonlar bitimga ko'ra qanday ko'rinishdagi va hajmdagi risklar mavjud bo'lsa, ularni ularni o'zaro teng taqsimlashlari va bitim so'ngida qancha miqdorda foyda olsa uni ham

oldindan kelishilgan ulushda taqsimlashlari kerak. Bu prinsip Mushoraka va Muzoraba shartnomalarida yaqqol namoyon bo'ladi;

aktivlar bilan ta'minlanganlik. Har bir moliyaviy operatsiya real aktiv asosida amalga oshirilishi shart. Bu islom moliyasining barqarorligi va inflyatsiyaga chidamliligini oshiradi;

halol iqtisodiy faoliyat. Alkogol, qurol-yarog', pornografiya, axloqiy jihatdan zararli tovar va xizmatlar bilan bog'liq bizneslar moliyalashtirilmaydi;

ijtimoiy mas'uliyat. Islom moliyasida iqtisodiy foyda bilan birga ijtimoiy farovonlik borasidagi tenglik ham maqsad qilinadi. Zakot va sadaqa mexanizmlari iqtisodiy tenglikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Islom moliyaviy instrumentlari sifatida quyidagilar amal qiladi:

Murobaxa. Ushbu usulda tovarni bank sotib olib, ustama narx bilan mijozga sotadi. Foiz yo'q va foyda ustamadan keladi;

Ijara. Bank aktivni sotib olib, mijozga ijaraga beradi. Vaqti kelganda tovar mijozga o'tadi;

Mushoraka. Tomonlar kapital qo'shib, foyda-ziyoni o'z ulushiga ko'ra bo'lishadi. Mushoraka islomiy sertifikatlar, investorlar va loyihaning egasi (sahibi) o'rtasida bir xil foyda taqsimoti asosida ishlaydi. Bu sertifikatlar, moliyaning ishlalishi va daromad olishi jarayonida investorlar va loyihaning egasi o'rtasida bir hamkorlik munosabatini ta'minlaydi va moliyaviy risklarga bo'lgan hissa egallash orqali kapitalni jalb etish imkoniyatini yaratadi. [6]

Muzoraba. Bir tomon — kapital, ikkinchi tomon — bilim va mehnati bilan ishtirok etadi. Foyda kelishilgan ulush bo'yicha taqsimlanadi.

Sukuk (islom obligatsiyalari). Foizsiz, real aktivlar bilan ta'minlangan moliyaviy instrument bo'lib, investor aktivdan keladigan real daromaddan ulush oladi. Sukuklar xalqaro kapital bozorlarida keng tarqalgan bo'lib, moliyaning diversifikatsiyasi uchun yaxshi bir vosita bo'lib hisoblanadi. Islomiy banklar uchun sukuklar kapitalni jalb etishning islom shar'iatini prinsiplariga mos ravishda amal qilishini ta'minlaydi va bankning moliyaviy muammoni halol yo'l bilan hal etishga yordam beradi. [7]

Islom moliya tizimi — Islom huquqi, boshqacha so'z bilan aytganda, shariat qonun-qoidalari asosida tashkil etish va faoliyat yuritish tamoyiliga asoslangan bank tizimidir, ya'ni bu turdagi banklarning barcha amaliyotlari, masalan, depozit omonati yoki moliyalashtirish bilan bog'liq amaliyotlari ham shariat ko'rsatmalariga muvofiq bo'ladi. Islom banklarining boshqa amaliyotlari: pul o'tkazmalari, kafolat xatlari, akkreditivlari, chet el valyutasini sotish kabilarga nisbatan ham ushbu qoidalar amal qiladi.

#### Xulosa (Conclusion, Заключение).

Islom moliyasi etik, barqaror va adolat prinsipiga asoslangan o'ziga xos moliyaviy tizim bo'lib, u zamonaviy iqtisodiy munosabatlarda muhim o'rin egallamoqda. Uning nazariy asoslari — ribo, garar va maysirni man etish, foyda va riskni teng taqsimlash, aktivlar bilan ta'minlanganlik — bu tizimni global moliyaviy inqirozlar davrida ham barqaror qilmoqda.

Islom moliyasi nafaqat musulmon mamlakatlarida, balki Evropada, Amerikada va Osiyoda ham keng qo'llanilayotgani, uning universal va barqaror xususiyatga egaligini ko'rsatib turibdi. Tahlilchilarning hisob-kitobiga ko'ra, jahonda sukuk moliyaviy sektori 2027 yilga borib o'rtacha yillik 17% o'sish bilan 1,98 trln AQSh dollariga yetadi. Sukuk orqali yirik loyihalarni, sanoat va biznesni moliyalashtirish fors ko'rfazi davlatlari va Janubiy Osiyo davlatlarida tobora muhim vositaga aylanib bormoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. [https://www.researchgate.net/publication/337923677\\_ISLAMIC\\_FINANCE\\_Principles\\_and\\_Practice\\_Third\\_Edition](https://www.researchgate.net/publication/337923677_ISLAMIC_FINANCE_Principles_and_Practice_Third_Edition)
2. Hasanuzzaman, S. M. (1984). "Definition of Islamic Economics", Journal of Research in Islamic Economics, 1(2), pp. 51-53.
3. Mannan, M. A. (1983). "Islamic Economics as Social Science: Some Methodological Issues", Journal of Research in Islamic Economics, 1(2), pp. 41-50.
4. Ahmad, Khurshid (1992), "Nature and Significance of Islamic Economics", in Ausaf Ahmad and Awan (eds.), Lectures on Islamic Economics. Jeddah: Islamic Development Bank.
5. Siddiqi, M. N (1992). "History of Islamic Economic Thought", in Ausaf Ahmed et al. (eds.), Lectures on Islamic Economics. Jeddah: IRTI-Islamic Development Bank.
6. Xamdamova, R. R. Q., & Shernayev, A. A. (2022). Xalqaro moliya bozoridagi operatsiyalarning rivojlanish istiqbollari. Science and Education, 3(1), 1111-1116.
7. Шернаев, А. А. (2020). Совершенствование налогового планирования в акционерных обществах-как механизм повышения эффективности финансового менеджмента. Экономика и общество, (4), 20-28.